



MAMLAKATIMIZGA INVESTITSİYALARNI JALB QILISHDA MOLIYA-KREDIT MEKANIZMLARINING ROLINI OSHIRISH MASALALARI

ISSUES OF ENHANCING THE ROLE OF FINANCIAL AND CREDIT MECHANISMS IN ATTRACTING INVESTMENTS TO OUR COUNTRY

¹Madaminov In'omjon
Ozodovich

¹Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti mustaqil izlanuvchisi.
ORCID: 0000-0002-6832-9131, G-mail: inomjon.ozodovich@gmail.com

Annotatsiya Abstract

Uzb. - Mazkur ishda mamlakatimizga investitsiyalarni jalb qilishda moliya-kredit mexanizmlarining ahamiyati va ularning samaradorligini oshirish masalalari tahlil qilinadi. Xususan, investitsiya muhitini yaxshilash, bank-moliya tizimini rivojlantirish, kredit resurslaridan oqilona foydalanish hamda xorijiy investorlarga qulay shart-sharoitlar yaratish yo'llari ko'rib chiqiladi. Shuningdek, tijorat banklari faoliyatini takomillashtirish, uzoq muddatli kreditlashni kengaytirish va moliyaviy instrumentlar diversifikatsiyasining investitsion faollikka ta'siri yoritiladi. Tadqiqot natijasida mamlakat iqtisodiyotiga investitsiyalar oqimini ko'paytirishda moliya-kredit mexanizmlarini modernizatsiya qilish zarurligi asoslab beriladi hamda amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqiladi.

Eng. - This work analyzes the importance of financial and credit mechanisms in attracting investments to our country and issues of increasing their efficiency. In particular, ways to improve the investment climate, develop the banking and financial system, rational use of credit resources, and create favorable conditions for foreign investors are considered. It also highlights the impact of improving the activities of commercial banks, expanding long-term lending, and diversifying financial instruments on investment activity. As a result of the study, the need to modernize financial and credit mechanisms to increase the flow of investments into the country's economy is substantiated, and practical proposals and recommendations are developed.

Kalit so'zlar: Keywords:

❖ investitsiya, moliya-kredit mexanizmlari, bank tizimi, kreditlash, investitsiya muhiti, xorijiy investitsiyalar, moliyaviy instrumentlar, kapital bozori, likvidlik, risklarni boshqarish, iqtisodiy rivojlanish, kapital oqimi, moliyaviy barqarorlik, innovatsion rivojlanish.

❖ investment, financial and credit mechanisms, banking system, lending, investment environment, foreign investments, financial instruments, capital market, liquidity, risk management, economic development, capital flow, financial stability, innovative development.

Kirish.

Bugungi globalashuv sharoitida har bir mamlakatning barqaror iqtisodiy rivojlanishi, avvalo, investitsiya oqimlarining hajmi va

samaradorligiga bevosita bog'liqdir. Investitsiyalar iqtisodiyot tarmoqlarini modernizatsiya qilish, yangi ishlab chiqarish quvvatlarini yaratish, innovatsion

texnologiyalarni joriy etish hamda aholi bandligini oshirishda muhim omil hisoblanadi. Shu bois, mamlakatimizda qulay investitsiya muhitini shakllantirish va xorijiy hamda mahalliy investorlarni faol jalb etish ustuvor vazifalardan biri sifatida qaralmoqda. Investitsiyalar milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirish, yangi texnologiyalar va bilimlarni transfert qilish, ish o'rinlari yaratish hamda aholi farovonligini ta'minlashning asosiy omillaridan biri hisoblanadi. Moliya-kredit mexanizmlari esa investitsiyalarni jalb qilishning eng samarali vositalaridan biri sifatida namoyon bo'ladi [1].

Investitsiya jarayonlarining samaradorligi ko'p jihatdan moliya-kredit mexanizmlarining rivojlanganlik darajasi bilan belgilanadi. Bank tizimi, kreditlash amaliyoti, moliyaviy instrumentlar va kapital bozori infratuzilmasining takomillashuvi investitsion faollikni oshirishga xizmat qiladi. Ayniqsa, tijorat banklarining investitsion loyihalarni moliyalashtirishdagi roli, uzoq muddatli kredit resurslarining mavjudligi hamda foiz stavkalarining maqbulligi investorlar uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga, davlat tomonidan moliya-kredit tizimini qo'llab-quvvatlash, soliq va bojxona imtiyozlari berish, investorlarga huquqiy kafolatlar yaratish kabi chora-tadbirlar investitsiya muhitini yanada yaxshilashga xizmat qiladi. Zamonaviy sharoitda moliya-kredit mexanizmlarini takomillashtirish orqali iqtisodiyotga investitsiyalarni keng jalb qilish masalasi dolzarb ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etmoqda.

O'zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan keng qamrovli iqtisodiy islohotlar investitsion muhitni tubdan yaxshilashga qaratilgan. 2017-yildan boshlab amalga oshirilayotgan tizimli islohotlar natijasida mamlakatimizga kirib keladigan xorijiy investitsiyalar hajmi sezilarli darajada o'sdi. 2025-yil 1-oktabr holatiga O'zbekistonda amerika kapitali ishtirokida 339 ta korxona faoliyat yuritmoqda. Bu xorijiy investitsiyalar

ishtirokidagi korxonalar umumiy sonining taxminan 2 foiziga teng. Shulardan 89 tasi – qo'shma korxona, 250 tasi – AQSh kapitali to'liq ishtirokidagi korxonadir. So'nggi 8 yilda AQShdan jalb qilingan to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar va kreditlar hajmi 63 baravarga oshib, 2017-yildagi 8,6 mln. dollardan 2024-yilda 545,9 mln. dollarga yetdi. Umuman olganda, 2017–2024-yillarda O'zbekiston iqtisodiyotiga AQShdan jalb etilgan to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar va kreditlarining umumiy hajmi 2,6 mlrd. dollardan oshdi [2].

Biroq, fikrimizcha ushbu ko'rsatkich hali ham O'zbekistonning iqtisodiy salohiyati va mintaqaviy raqobatchilar darajasiga nisbatan past bo'lib qolmoqda.

Ushbu masalani hal etishda moliya-kredit mexanizmlarini takomillashtirish, xalqaro moliya institutlari bilan hamkorlikni kengaytirish va raqamli moliya vositalarini joriy etish muhim ahamiyat kasb etadi. Shunga binoan, mazkur maqolaning maqsadi – O'zbekistonga investitsiyalarni jalb qilishda moliya-kredit mexanizmlarining joriy holatini tahlil qilish, ularning samaradorligini oshirish yo'llarini hamda mavjud muammolarni aniqlash, ularni hal etishga qaratilgan ilmiy asoslangan xulosalar va tavsiyalar ishlab chiqishdan iboratdir.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi.

Investitsiyalarni jalb qilish va ularning samaradorligini oshirish masalalari iqtisodiyot nazariyasi va amaliyotida muhim o'rin tutadi. Xususan, moliya-kredit mexanizmlarining ushbu jarayondagi roli ko'plab olimlar tomonidan keng o'rganilgan. Xorijiy iqtisodchi olimlardan John Maynard Keynes [3] investitsiyalar hajmi foiz stavkalari, kredit resurslari va davlatning fiskal siyosatiga bevosita bog'liqligini ta'kidlagan. Uning nazariyasiga ko'ra, moliya bozorlaridagi barqarorlik va kredit resurslarining arzonligi investitsion faollikni rag'batlantiradi. Shu bilan birga, Joseph Schumpeter [4] bank tizimini iqtisodiy o'sishning asosiy drayveri sifatida

ko'rib, innovatsiyalarni moliyalashtirishda kredit mexanizmlarining hal qiluvchi rolini asoslab bergan.

Zamonaviy tadqiqotchilardan Paul Krugman global moliya oqimlari va kapital harakati erkinligi investitsiya muhitiga sezilarli ta'sir ko'rsatishini qayd etadi. U, ayniqsa, rivojlanayotgan mamlakatlarda moliyaviy infratuzilmani rivojlantirish va kredit institutlari samaradorligini oshirish zarurligini ta'kidlaydi.

MDH va mahalliy olimlar orasida ham mazkur masala keng yoritilgan. Zamonaviy o'zbek iqtisodchi olimlari investitsion muhitni yaxshilashda bank tizimi, soliq imtiyozlari va davlat kredit siyosatining muhimligini asoslab bermoqda. Shuningdek, Jahon banki va Xalqaro valyuta fondi hisobotlarida ham investitsiyalarni jalb qilishda muhim omillar ko'rsatilgan [4].

So'nggi yillarda O'zbekiston iqtisodiyotida olib borilayotgan islohotlar ham investitsion muhitni yaxshilashga qaratilgan bo'lib, bank tizimini liberallashtirish, kreditlash hajmini oshirish va xorijiy investorlar uchun qulay shart-sharoitlar

yaratishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bu borada milliy strategiyalar va normativ-huquqiy hujjatlar investitsiya jarayonlarini moliyaviy qo'llab-quvvatlashda muhim asos bo'lib xizmat qilmoqda.

Tadqiqot metodologiyasi.

Tadqiqot metodologiyasi sifatida tizimli tahlil, qiyosiy usul, iqtisodiy-statistik tahlil usullaridan foydalanildi. Asosiy ma'lumotlar manbai sifatida O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki, Iqtisodiyot va moliya vazirligi, Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi, Jahon banki, Xalqaro valyuta fondi va Osiyo Taraqqiyot banki hisobotlaridan foydalanildi [5].

Tahlil va natijalar muhokamasi.

So'nggi yillarda O'zbekistonga jalb qilinayotgan investitsiyalar hajmida ijobiy tendentsiyalar kuzatilmoqda. 2019-2023-yillar davomida jami investitsiyalar YaIMga nisbatan 25-32 foizni tashkil etib, mintaqaviy o'rtacha ko'rsatkichdan yuqori bo'ldi. Biroq investitsiya tarkibida xorijiy investitsiyalarning ulushi nisbatan past darajada qolmoqda [6].

1-jadval

O'zbekistonga investitsiyalar jalb qilish dinamikasi (2019-2023-yy.)

<i>Ko'rsatkich</i>	<i>2019</i>	<i>2020</i>	<i>2022</i>	<i>2023</i>
<i>Jami to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar (mlrd. AQSh dollari)</i>	4.2	5.1	8.3	10.6
<i>Xorijiy kreditlar va qarzarlar (mlrd. AQSh dollari)</i>	3.8	4.4	6.9	9.1
<i>Xususiy investitsiyalar (YaIMga nisbatan, % da)</i>	18.4	19.2	22.7	25.3
<i>Investitsion kredit portfeli (mlrd. so'm)</i>	18 420	24 560	58 340	82 750
<i>Foiz stavkasi (o'rtacha, % da)</i>	18.4	20.1	22.7	21.5

Ushbu 1-jadval ma'lumotlari shuni ko'rsatadiki, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar 2019-2023-yillar oralig'ida 2,5 barobardan ko'proq o'sdi. Shu bilan birga, foiz stavkalarining yuqoriligi (21-24 foiz) bank kreditlari orqali investitsiyalarni jalb qilishni qiyinlashtirmoqda. Bu holat moliya-kredit

mexanizmlarini tubdan takomillashtirish zarurligini ko'rsatadi. Investitsiyalarni jalb qilishda qo'llaniladigan moliya-kredit mexanizmlari o'zining qamrovi, muddati va xavf-xatar darajasi jihatidan bir-biridan farq qiladi. Quyidagi jadvalda asosiy mexanizmlarning qiyosiy tahlili keltirilgan:

2-jadval

Investitsiyalarni jalb qilishda qo'llaniladigan moliya-kredit mexanizmlarining qiyosiy tahlili

Mexanizm turi	Qamrov	Muddati	Foiz/daromad	Risklar
Bank kreditlari	Keng	Qisqa/o'rta	18-24%	O'rtacha
Obligatsiya emissiyasi	O'rta	O'rta/uzoq	14-18%	Past
Aksiya (IPO)	Cheklangan	Uzoq	Dividendlar	Yuqori
Venchur kapital	Tor	Uzoq	30%+	Juda yuqori
DXSh mexanizmlari	O'rta	Uzoq	8-14%	Past

Yuqoridagi 2-jadval ma'lumotlari asosida shunday xulosa chiqarish mumkinki, har bir mexanizm o'ziga xos afzalliklari va cheklovlariga ega. Samarali investitsion muhit barcha mexanizmlarning muvofiq kombinatsiyasiga asoslanishi kerak. O'zbekiston sharoitida hozircha bank kreditlari dominant o'rinni egallaydi, biroq obligatsiya bozori va davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarini rivojlantirish muhim zaxiralardan biri hisoblanadi.

Shuningdek, bank kreditlash investitsion jarayonlarni moliyalashtirishning an'anaviy va eng keng tarqalgan shakli hisoblanadi. O'zbekistonda bank aktivlarining YaIMga nisbati 2023-yilda taxminan 68 foizni tashkil etdi, bu esa hududdagi o'rtacha ko'rsatkichdan (55 foiz) yuqori [7]. Biroq kreditlarning real sektorga yo'naltirilishi va investitsion sifati masalasida muammolar mavjud. Investitsion kreditlash samaradorligini oshirishda foiz stavkasi siyosatining ahamiyati beqiyosdir. Empirik tahlillar shuni ko'rsatadiki, real foiz stavkasi 1 foiz punktga oshishi investitsion kreditlar talabini 2,1-2,7 foizga pasaytiradi. Shu sababli Markaziy bankning monetar siyosati investitsion faollikni rag'batlantirishga qaratilgan bo'lishi zarur [8]. Xalqaro moliya institutlari – Osiyo Taraqqiyot banki, Jahon banki va Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki – O'zbekistonga uzoq muddatli imtiyozli kreditlar taqdim etmoqda. 2020-2023-yillarda ushbu institutlardan jalb qilingan mablag'lar 3,8 mlrd. AQSh dollarini tashkil etib, asosan

infratuzilma va qishloq xo'jaligi loyihalarini moliyalashtirishga yo'naltirildi [9].

Ma'lumki, qimmatli qog'ozlar bozori uzoq muddatli investitsion kapitalarni shakllantirishning samarali vositasi hisoblanadi. Rivojlangan davlatlarda fond bozori kapitalizatsiyasining YaIMga nisbati 100-150 foizga yetsa, O'zbekistonda bu ko'rsatkich 2023-yilda atigi 6-8 foizni tashkil etdi [10]. Bu esa fond bozorini rivojlantirish bo'yicha amaliy chora-tadbirlar qabul qilishni taqozo etadi. Tahlillar 2019–2023-yillarda O'zbekistonda fond bozorini rivojlantirish bo'yicha elektron savdo tizimi joriy etilganligini, korporativ obligatsiyalar bozori rivojlana boshlaganini, bir qator davlat kompaniyalari aksiyalari fond bozorida joylashtirilganini ko'rsatadi. Lekin, bozor likvidligi va emitentlar soni hali ham past darajada qolmoqda. Jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, fond bozorini rivojlantirish uchun kuchli institutsional investorlar bazasi – pensiya jamg'armalari, sug'urta kompaniyalari va investitsion fondlar zarur. Bu albatta O'zbekistonda pensiya jamg'armasini fond bozori vositalariga yo'naltirish kapitalni safarbar qilishning samarali yo'li bo'lishi mumkin.

Bugungi to'rtinchi sanoat inqilobi sharoitida raqamli moliya texnologiyalari (Fintech) investitsiyalarni jalb qilishning yangi imkoniyatlarini yaratmoqda. Kraudfanding platformalari, raqamli investitsion fondlar, blokcheyn asosidagi qimmatli qog'ozlar va sun'iy intellektga asoslangan kredit baholash

tizimlari moliyaviy vositachilik xarajatlarini sezilarli darajada kamaytiradi [10].

O'zbekistonda 2020-yildan boshlab Fintech sohasi faol rivojlanmoqda. 2023-yilda mamlakatda 50 dan ortiq Fintech kompaniyasi faoliyat yuritib, ularning umumiy bozor hajmi 1,2 mlrd. AQSh dollarini tashkil etdi. Investitsiyalarni jalb qilishda raqamli moliya texnologiyalari quyidagi afzalliklarni taqdim etadi: xorijiy investorlarning o'z mamlakatlaridan turib O'zbekistondagi loyihalarga investitsiya qilish imkoniyatini kengaytirish; moliyaviy vositachilik xarajatlarini 30-50 foizga kamaytirish; investitsion jarayonlar shaffofligini oshirish; kichik va o'rta biznesni moliyalashtirishga keng ommalashishni ta'minlash [10].

Xulosa va takliflar.

Mavzu doirasidagi tahlillar natijasida O'zbekistonda investitsiyalarni jalb qilishda moliya-kredit mexanizmlarining samaradorligini oshirishda bank kreditlash, fond bozori, raqamli moliya vositalarini o'zaro muvofiqlashtirilgan tarzda rivojlantirish investitsion jalb qilish hajmini 2025-2027 yillarga qadar yiliga 15-20 mlrd.

AQSh dollariga yetkazish imkonini berishi aniqlandi hamda quyidagi asosiy xulosalar olindi:

❖ bank kreditlashda foiz stavkalarining yuqoriligi (20-24 foiz) uzoq muddatli investitsion loyihalarning rentabelligini cheklaydi;

❖ qimmatli qog'ozlar bozorining past likvidligi va institutsional investorlar bazasining zaifligi kapital bozori vositalaridan foydalanishni qiyinlashtiradi;

❖ xorijiy investorlar uchun valyuta riskini boshqarish vositalarining (xedjirlash instrumentlari) yetishmasligi;

❖ moliyaviy axborotning shaffof bo'lmashligi va korporativ boshqaruvdagi kamchiliklar xorijiy investorlarning ishonchini susaytiradi.

Fikrimizcha, ushbu yuqoridagi masalalarni hal etish uchun kompleks yondashuv talab etiladi. Bu esa to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar hajmini 2027-yilga qadar YaIMning 8-10 foiziga yetkazish, fond bozori kapitalizatsiyasini YaIMning 15-20 foizigacha oshirish hamda xususiy sektordagi investitsiyalar ulushini 55-60 foizga yetkazish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga Murojaatnomasi 26.12.2025-y.
2. O'zbekiston Respublikasi Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi. Investitsion faoliyat to'g'risida yillik hisobot 2023. - Toshkent, 2024. - 98 b.
3. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki. Pul-kredit siyosati to'g'risida hisobot. - Toshkent, 2023.
4. Abdullayeva Sh.Z. Bank ishi: darslik. - Toshkent: Iqtisod-Moliya, 2017. - 640 b.
5. Karimov A.A. Iqtisodiy islohotlar va investitsiya siyosati. - Toshkent, 2019.
6. John Maynard Keynes. *The General Theory of Employment, Interest and Money*. - London: Macmillan, 1936.
7. Joseph Schumpeter. *The Theory of Economic Development*. - Cambridge: Harvard University Press, 1934.
8. World Bank. *World Development Report 2023: Investing in Development*. - Washington, DC, 2023.
9. International Monetary Fund. *Global Financial Stability Report*. - Washington, DC, 2022.
10. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlari.